Atajanov Xurmet Abdimuratovich (Qoraqalpoq davlat universiteti "Jurnalistika" kafedrasi dotsenti; hurmet_05@mail.ru)

MINTAQAVIY MEDIAMAKON MASALALARI

Annotatsiya. *Muallif mediamakon tushunchasini mintaqaviy jihatdan o'rganishga harakat qilgan. Mintaqa nima va mintaqaviy jurnalistikaning asosiy mavzu yo'nalishlari, mintaqada mediamakonning shakllanishiga ta'sir qiladigan omillar har tamonlama tahlilga olingan.*

Kalt so'zlar: *mediamakon, mintaqaviy jurnalistika, jurnalistika janrlari, hudud, mintaqaviy matbuot, ekologik muammolar.*

Атажанов Хурмет Абдимуратович (доцент кафедры Журналистика Каракалпакского государственного университета; hurmet_05@mail.ru)

ВОПРОСЫ РЕГИОНАЛЬНОЙ МЕДИА СРЕДЫ

Аннотация. *Автор попытался изучить понятие медиа среды в региональном аспекте. В статье проанализированы вопросы, что такое регион, основные тематические направления региональной журналистики, факторы влияющие на развитие медиа среды в регионе.*

Ключевые слова*: медиа среда, региональная журналистика, регион, жанры журналистики, региональная печать, экологические проблемы.*

Atajanov Khurmet Abdimuratovoch (Associate Professor, Department of Journalism, Karakalpak State University; hurmet_05@mail.ru)

ISSUES IN THE REGIONAL MEDIA ENVIRONMENT

Annotation. *The author tried to study the concept of the media environment from a regional perspective. The article analyzes what a region is, the main thematic areas of regional journalism, factors influencing the development of the media environment in the region.*

Key words*: Media environment, regional journalism, region, genres of journalism, regional press, environmental problems.*

Kirish (Introduction). Bugungi kunga kelib jurnalistika nazariyasi har xil aspektlarda o'rganilib, ilmiy xulosalar chiqarilib kelmoqda. Jurnalistika janrlari, media sohalari va boshqa mavzuli yo'nalishlar har tomonlama o'rganilgan. Ammo media va jurnalistikaning mintaqaviy rivojlanishi, xususiyatlari, O'zbekistonda ma'lum hudud misolida kam o'rganilgan. Shu qarashdan olib qaraydigan bo'lsak, jurnalistikaning ma'lum bir mintaqa xususiyatni ko'lamida o'rganish dolzarb hisoblanadi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). Mintaqaviy (region) jurnalistika deganimiz nima va u qanday maqsatlarni qo'yadi, asosiy xusisiyatlariga e'tibor qaratmasdan oldin mintaqa so'ziniŋg ma'nosiga e'tibor qaratishimiz to'g'ri bo'lsa kerak.

Mintaqa (region – davlat, viloyat) katta hududiy birlik (masalan, tabiiy, iqtisodiy, siyosiy va boshqalar). Mintaqaviy – ma'lum bir mintaqaga tegishli bo'lganligi (tuman, viloyat, davlat, bir qator davlatlar guruhi) [1].

Siyosiy adabiyotlarda mintaqa – bu o'ziga xos siyosiy ko'rinish, har xil siyosiy shaklga ega bo'lishi mumkin [2]. Mintaqaning falsafiy ma'nosi – bu faqatgina shu hududga xos bo'lgan mentalitet, fikr yuritish obrazi, dasturlar, dunyoqarash xos bo'lgan o'zgacha dunyo hisoblanadi [3].

Agar mintaqa atamasiga teranroq tushuntirish beradigan bo'lsak, ko'pgina tahlillarni keltirib o'tishimiz kerak. Ammo maqsadimiz mintaqaviy jurnalistikaning xususiyatlariga to'xtab o'tishdan iborat. Ya'ni, mintaqaviy jurnalistika – bu o'ziga xos hududga ega bo'lgan mintaqada bo'lib o'tayotgan o'zgarishlar bilan yangiliklarni yoritib boradigan jurnalistika sifatida ta'kidlab o'tishimiz mumkin. Qator olimlar atamaga nazariy asos yaratishga harakat qilishgan. Masalan, olim Y.A.Kornilovning fikricha, «mintaqaviy jurnalistika bu huduiy yoki milliy etnik xususiyatga ega ko'rsatuvlar bilan nashrlarda ko'zga tashlanadi, ya'ni, ular mintaqa ko'lamidagi axborot bilan auditoriyaning talablarini qondiradi» [4].

Rossiyalik olim, Ural mintaqaviy matbuoti bo'yicha tadqiqot olib borgan B.N.Kirshin mintaqaviy matbuot bo'yicha quyidagi fikrni bildiradi: «Bu umumiy milliy axboriy makonning ahamiyatli bo'limi, o'ziga xos Rossiya ommaviy axborot vositalari tizimi asosini tashkil qiladi. Eng yaxshi mintaqaviy nashrlar o'ziga xos xususiyatlarga ega. Bu gazetalarning o'quvchilar auditoriyasi doimiy ravishda o'z hududiga bog'liq materiallarga bo'lgan qiziqishi bilan o'z xususiyatiga ega bo'ladi [5].

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Maqolada, asosan, tipologik analiz, kontent, tarixiy analiz metodlaridan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Demak, mintaqaviy jurnalistika ma'lum bir hududta shakllangan va shu mintaqa uchun ahamiyat kasb etadigan, ya'ni, ushbu mintaqaning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va odamlarning yashash tarzim bilan bog'liq bo'lgan axborotlarni auditoriyaga yetkazib beradigan obyekt hisoblanadi. Ammo bizning tahlillarimiz keng bo'lishi uchun global atamasi bilan solishtirib tahlil qilingan ishlarga e'tibor qaratdik. Nimaga deganda hozirgi paytda global jarayonlar lokal, ya'ni, mintaqaviy jarayonlarga ta'sir qiladi va bir-birini qo'llab-qo'vvatlab turadi.

R.Roberson mahalliy va mintaqaviy matbuotning global axboriy makondagi roli bilan joyiga e'tibor berib, global jarayonlarning ortishi bilan lokal jarayonlarning roli oshganligin ta'kidlab o'tadi [7]. Y.O. Arbatskiy esa lokal ommaviy axborot vositalari ko'pchilik holatda umumiy qiziqishga qaraganda shaxsiy qiziqishga e'tibor qaratish kerakligini aytadi [8].

Xohlagan jurnalistik tizim jamiyatda bo'layotgan jarayonlarni tahlili qilib boradigan va ma'lum darajada ta'sir qiladigan kuch hisoblanadi. Shunday ekan, mintaqaviy jurnalistikaning asosiy maqsadi sifatida ushbu hududning axboriy makonini shakllantirish hisoblanadi. Shuning uchun ham ommaviy axborot vositalari mahalliy ahamiyatga ega bo'lgan yangiliklarni umumiy davlat ko'lamiga olib chiqish kanali ham. Axboriy makoni bu umumiy jarayonlar bilan axboriy tizimlar hisoblanadi.

Axboriy makoni davlatning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy va jamiyatning boshqa sohalari bilan ommaviy kommunikatsiyaning texnologik imkoniyatlarining oshishi bilan o'zgarib boradi. Ta'kidlab o'tadigan bo'lsak, eski sovet davrida chekka hududlarda axboriy makoni kommunistik g'oyag'a bog'liq bo'lgan tushunchalar atrofidagi axborotlar soni ko'p bo'ldi. Mustaqillikning dastlabki yillari esa milliy qahramonlar bilan milliy g'urur, milliy qadriyatlar bilan bog'liq axborotlar soni ortib bordi.

T.V.Zakupen axboriy makonni axborot, axborot manbalari infoduziomasi bilan qamrab olingan hudud ekanligiga urg'u beradi va undagi barcha subyektlar ushbu axborotni olish va uni yetkazib berishda birday imkoniyatlarga ega [9]. Y.P.Proxorov esa axborot makonni ommaviy axborot vositalari ish olib boradigan makon deb tushunadi va ular axborot manbalarini boshqaradi va egalik qiladi [10].

Ma'lum bir hudud o'z xususiyatlari, milliy, madaniy normalari orqali ijtimoiy va siyosiy muammolarga bo'lgan munosobatni shakllantiradi. Hudud kommunikatsion makoni sifatida ushbu xususiyatlarni shakllantiradi va ularni o'z lokal medialari orqali ko'pchilikka yetkazib beradi.

Shunday tendensiyani Qoraqalpog'iston mediasi bozorida mustaqillikning dastlabki yillarida ko'rish mumkin bo'ldi. Qoraqalpoq xalqining milliy mentaliteti, millliy dasturlari bilan milliy adabiyoti, milliy o'zligi tushunchalari mintaqaviy mediada o'z aksini topa boshladi. Milliy qahramonlar bilan milliy tarix, qoraqolpoq xalqining bir nechta asrlar davomida shakllangan tarixiy identivligi masalalari mahalliy medialarning asosiy mavzuli yo'nalishiga aylandi. Masalan, taniqli qoraqalpoq faylasufi J.Bozorboyev «Bizning bobolarimiz eng boshida o'z farzandlariga ota-bobolarining kim bo'lganligini bilishni o'rgatishgan. Ularda ota-bobolarimiz ishlari bilan maqtanish sezgilarini shakllantirishgan» [11]. Bu faqat bitta misol, bundan boshqa Alloyor Do'snazarov kim bo'lgan? Salmen eshon qanday inson bo'lgan edi, uning karomati haqiqatmi? degan savollar qoraqolpoq auditoriyasini qattiq qiziqtirgan.

Qoraqalpog'iston axborot makonida bunday masalalarning joy olishiga nima sabab bo'lgan ekan? Bunga bir nechta faktorlar sabab bo'lganligi aniq:

– birinchidan, ittifoq parchalanmasdan oldin bir nechta respublikada milliy nizolar kelib chiqdi. Millatlarni bog'lab turgan yelim ketdi. Har bir millat o'z kelib chiqishi bilan tarixini teran tadqiq qila boshladi;

– ikkinchidan, auditoriya umumittifoq axborotlaridan bezib boshlagandi. Auditoriyani ko'proq lokal masalalar qiziqtira boshladi;

– uchinchidan, xalqda uyg'ona boshlagan milliy ong, o'z tarixi bilan o'tmishini yoritib boradigan kontentlarga talab ortib bordi.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Qoraqalpog'iston auditoriyasi uchun ekologiya masalasi eng dolzarblardan hisoblanadi. Nimaga deganda, hudud xalqining hayoti Orol dengizi bilan va uni suv bilan ta'minlab turgan Amudaryoning holati bilan chambarchas bog'liq.

Mintaqadagi ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy holat iqtisodiy mavzuga, muammoga bo'lgan talab oshirib yuboradi. Bunga bir nechta sabab bor:

– birinchidan, ekologik muammo xalqning hayoti bilan chambarchas bog'liq bo'lib qoldi. Masalan, «Erkin Qaraqalpaqstan» gazetasida chop etilgan «Aral hám qurılıs. Yamasa Qaraqalpaqstanda turaq jaylar nege tez tozadı?» mavzusidagi maqolada ekologik muammo sababli yerlarning sho'rlanishi xalq tomonidan qurilayotgan uylarning yemirilishiga olib kelayotganligi ta'kidlanadi. Demak, ekologik muammo fuqarolarning hayot tarzida ta'sir qila boshlagan;

– ikkinchidan, ekologik muammo xalqning ko‘chib ketishiga, Orol dengizi atrofidagi yashab kelayotgan xalq dengizning chekina boshlashi bilan ichki hududlar va boshqa respublikalarga ko‘chishga majbur. Bu ham mahalliy medialarning asosiy mavzuli yo‘nalishiga aylandi;

–uchinchidan, ekologik, ya’ni, Orol dengizi bilan bog‘liq xo‘jalik yuritish korxonalarning yopilishi ushbu hududda yashayotgan fuqarolarning yashash tarziga, oila kelaytgan daromad manbasiga ta’sir qildi.

Demak, hududning iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy va boshqa sohalarida bo‘layotgan muammolar va o‘zgarishlar ushbu mintaqaning axborot makoni shakllanishiga ta’sir qilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Большая советская энциклопедия (1970–1977 гг.). Электрон нусхада, М., 2003, с. 234.

(2). Декларация о регионализме в Европе. Цит. по: Коваленко Е.Г. Региональная экономика и управление, учеб. пособие, СПб., “Питер”, 2005, с. 21–22.

(3). Бродель Ф. Материальная цивилизация, экономика и капитализм: XV – XVIII вв. http://www. Auditorium.ru/books/2021/goto.cgi-13+283+ brod.htm.

(4). Корнилов Е.А. Классификация социокультурных моделей журналистики. Вестн. Моск. ун-та, сер. 10. “Журналистика”, 1999, № 1.

(5). Киршин, Б.Н. Концепция региональной российской газеты (на примере «Челябинского рабочего». Б.Н.Киршин. Автореф.дис. … канд. филол. наук, 10.01.10. Екатеринбург, 2006, с. 3.

(6). Киршин, Б.Н. Концепция региональной российской газеты (на примере «Челябинского рабочего». Б.Н.Киршин. Автореф.дис. … канд. филол. наук, 10.01.10. Екатеринбург, 2006, с. 3.

(7). Арбатская, Е.О. Имеет ли значение глобализация? Е.О.Арбатская. “Журналистика” в 2004 г., СМИ в многополярном мире. Сб. материалов науч.-практ. конференции, ч. 1, М., 2005, с. 340; с. 50–52.

(8). Арбатская, Е.О. Имеет ли значение глобализация? Е.О.Арбатская. “Журналистика” в 2004 г., СМИ в многополярном мире. Сб. материалов науч.-практ. конференции, ч. 1, М., 2005, с. 340; с. 55.

(9). Закупень Т.В. Правовые и организционные аспекты формирования информационного пространства государств – участников СНГ. М., 1998, с. 2.

(10). Прохоров Е.П. Журналистика и демократия. М., 2001, с. 20.

Abdusattorov Shahboz Shavkat o‘g‘li (O‘zbekiston davlat Jahon tillari universiteti mustaqil izlanuvchisi)

AGRAR JURNALISTIKA: ZAMONAVIY YONDASHUVLAR VA IJTIMOIY-IQTISODIY AHAMIYATI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada agrar jurnalistikaning shakllanishi va rivojlanish jarayonlari, qishloq xo‘jaligi mavzularining ommaviy axborot vositalarida yoritilish tendensiyalari hamda innovatsion yondashuvlar tahlil qilingan. Axborot texnologiyalari, ekologik xavfsizlik va multimediali materiallardan foydalanish orqali agrar mavzularni yanada samarali yoritish yo‘nalishlari ko‘rsatib berilgan. Shu bilan birga, O‘zbekiston televideniyasidagi tajribalar va xorijiy OAV amaliyoti solishtirilib, sohani rivojlantirish bo‘yicha tavsiyalar berilgan.*

Kalit so‘zlar: *agrar jurnalistika, qishloq xo‘jaligi, ommaviy axborot vositalari, innovatsion yondashuvlar, multimediali materiallar, ekologik xavfsizlik, axborot texnologiyalari.*

АГРАРНАЯ ЖУРНАЛИСТИКА: СОВРЕМЕННЫЕ ПОДХОДЫ И СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКОЕ ЗНАЧЕНИЕ

Аннотация. *В данной статье анализируются процессы формирования и развития аграрной журналистики, тенденции освещения сельскохозяйственных тем в средствах массовой информации, а также инновационные подходы. Особое внимание уделено использованию информационных технологий, экологической безопасности и мультимедийных материалов для более эффективного освещения аграрных вопросов. Рассматривается опыт телевидения Узбекистана и зарубежных СМИ, а также даются рекомендации по развитию данной сферы.*

Ключевые слова: *аграрная журналистика, сельское хозяйство, средства массовой информации, инновационные подходы, мультимедийные материалы, экологическая безопасность, информационные технологии.*

AGRICULTURAL JOURNALISM: MODERN APPROACHES AND SOCIO-ECONOMIC SIGNIFICANCE

Annotation. *This article analyzes the formation and development of agricultural journalism, the trends in covering agricultural topics in mass media, and innovative approaches. Special attention is given to the use of information technologies, environmental safety, and multimedia materials to improve the*